


5-sinf savollari

- 1 (3,1 ball) Sardor "TASHKENTIMO" soʻzini yonma-yon tarzda 10 marta yozdi. Quyidagilardan qaysi bir hosil boʻlgan soʻzning biror-bir qismida aniq uchramaydi?
A) ENTIMOT B) ASHKENTI C) MOTASHK D) KENIMO

- 2 (3,1 ball) Hisoblang: $(1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5) : (1 + 2 + 3 + 4 + 5)$
A) 12 B) 15 C) 16 D) 8

- 3 (3,1 ball) $I = 1\frac{1}{3}$, $C = 2\frac{1}{7}$, $D = 1\frac{3}{4}$ nuqtalarning son oʻqidagi joylashuvi quyidagilardan qaysi biri boʻlishi mumkin?



- 4 (3,1 ball) Muslima doʻkondagi sotuvchiga 20000 soʻm berganida, sotuvchi unga 3 ta bir xil daftar va 2000 soʻm qaytim berdi. Agar Muslima 2 ta daftar olganida edi sotuvchi unga necha soʻm qaytim berardi?
A) 6000 B) 8000 C) 10000 D) 12000

- 5 (3,1 ball) Muzlatkichda 3 ta ikki litrlik idishlarda sharbat bor. Asadbek bu sharbatlarni 0,5 litrlik idishlarga toʻldirib taqsimladi. Buning uchun unga jami nechta 0,5 litrlik idish kerak boʻlgan?
A) 6 B) 9 C) 12 D) 10




TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD

- 6 (4,2 ball) Ko'p qavatli binodagi lift sekundiga 4 metr tezlik bilan 1-qavatdan eng yuqori qavatgacha 9 sekunda chiqadi. Lift biroz eskirganidan so'ng mexanik uning tezligini sekundiga 3 metr qilib qo'ydi. Endi lift 1-qavatdan eng yuqori qavatgacha necha sekunda chiqadi?

A)15 B)12 C)14 D)10

- 7 (4,2 ball) Rasmdagi quti ichida tartibsiz joylashtirilgan bir xil o'lchamli g'ishtlar joylashtirilgan. Bu qutiga ustma-ust 2 ta g'isht qoyib bo'lmaydi. G'ishtlarning eng kamida nechtasini siljitib, qutiga yana 2 ta g'ishtni joylashtirish mumkin?



A)5 ta B)2 ta C)3 ta D)4 ta

- 8 (4,2 ball) Farruxning elektron soati 12:15 ni ko'rsatyapti. Farrux darhol soatidagi barcha raqamlarni ko'paytirib, $1 \cdot 2 \cdot 1 \cdot 5 = 10$ natijani hosil qildi. Xuddi shunday u yana soatidagi barcha raqamlarni ko'paytirib qanday eng katta natijani hosil qilishi mumkin?

A)90 B)360 C)405 D)520

- 9 (4,2 ball) O'tgan yili beshinchi sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan "bilimlar bellashuvi" olimpiadasida har bir maktabdan 2 yoki 3 ta o'quvchi ishtirok etdi. 29 ta maktabdan jami 70 ta o'quvchi ishtirok etgan bo'lsa, nechta maktabdan 2 ta o'quvchi ishtirok etgan?

A)17 B)12 C)15 D)23

- 10 (4,2 ball) Muzlatgichda 4 ta sariq olma, 5 ta qizil olma, 6 ta sariq banan va 3 ta qizil shaftoli bor. Muzlatgichga qaramasdan eng kamida nechta meva olinganda ular orasidan aniq shaftoli yoki sariq rangli meva bo'ladi?


A)6 B)5 C)8 D)12



TASHKENT
INTERNATIONAL
MATHEMATICS
OLYMPIAD

- 11 (5,3 ball) Azamat uyidan maktabigacha piyoda yurib 42 daqiqada boradi. Uning akasi Farxod esa velosipedda harakatlanib undan uch marta tezroq boradi. Azamat 8:11 da, Farxod esa 8:32 da uyidan chiqib maktab tomon ketishdi. Ular maktabga birga kirmoqchi bo'lsa, kim necha daqiqa kutib turishi kerak?
 A)Azamat 7 daqiqa B)Farxod 7 daqiqa C)Azamat 15 daqiqa D)Farxod 15 daqiqa

- 12 (5,3 ball) Mirzabek kvadrat shaklidagi qog'ozni dastlab eni bo'ylab teng ikkiga bukladi. Keyin esa hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni bo'yi bo'ylab teng ikkiga bukladi(rasmga qarang). Hosil bo'lgan kichik kvadratni rasmga ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha qaychi bilan 2 marta qirqdi. Natijada dastlabki kvadrat shaklidagi qog'oz nechta bo'lakka ajraldi?




- A)12 ta B)14 ta C)16 ta D)8 ta

- 13 (5,3 ball) Sinfda 35 ta o'quvchi o'qiydi. Ularning $\frac{2}{5}$ qismi qiz bolalar. O'quvchilarning $\frac{2}{7}$ qismi ko'zoynak taqadi. Qizlarning aynan 9 tasi ko'zoynak taqamaydi. Nechta o'g'il bola ko'zoynak taqamaydi?
 A)5 B)16 C)10 D)1

- 14 (5,3 ball) Sardor doskaga 11 ta raqamlardan tashkil topgan ketma-ketlikni yozdi. Bunda, bitta raqamdan boshqa barcha raqamlar bir martadan ishtirok etdi. Nodir ketma-ketlikdagi har xil raqamlarni har xil harflar bilan, bir xil raqamlarni bir xil harflar bilan belgiladi. Natijada doskada quyidagi tengsizlik hosil bo'ldi. $T < A < S < H < K < E < N > T > I > M > O$
 Nodir qaysi raqamni "T" harfi bilan belgilagan bo'lishi mumkin?
 A)faqat 3 B)4 yoki 5 C)faqat 4 D)3 yoki 4

- 15 (5,3 ball) Quyidagi rasmda kafellardan tashkil topgan oshxona polining ma'lum bir qismi tasvirlangan. Bunda har bir kafel to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, ularning eni 2 dm bo'yi esa 3 dm. Anta ismli chumoli A nuqtadan B nuqtaga rasmda ko'rsatilganidek harakatlanib bordi. Bunda u o'zi yurgan kafellarning markazidan o'tgan va harakati davomida kafellarning biror-bir tomoniga parallel ravishda harakatlangan. Anta hammasi bo'lib necha dm masofa yurgan?




- A)24 B)22 C)18 D)21



TASHKENT
 INTERNATIONAL
 MATHEMATICS
 OLYMPIAD


- 16 (7,4 ball) Orollda bir nechta rostgo'y va yolg'onchilar bor. Bunda rostgo'ylar har doim rost, yolg'onchilar esa har doim yolg'on gapiradi.
Orolldagi rostgo'ylardan biri: Orolldagi barcha kishilarni har birida bittadan rostgo'oy bo'lgan 5 kishilik guruhlarga ajratib bo'ladi.
Orolldagi yolg'onchilardan biri: Orolldagi barcha kishilar soni 27 tadan ko'p. Rostgo'ylar soni esa 5 tadan kam.
 Orollda nechta yolg'onchi bor?
 A)12 B)16 C)20 D)Aniqlab bo'lmaydi.

- 17 (7,4 ball) Rasmda to'rtta turli tomonli A, B, C va D kvadratlar tasvirlangan. A va C kvadratlarining perimetrlari mos ravishda 52 cm va 12 cm bo'lsa, B va D kvadratlarining yuzlari yig'indisini toping (cm^2).



- A)85 B)89 C)41 D)80

- 18 (7,4 ball) 1 dan boshlab n gacha bo'lgan ketma-ket sonlar aylanaga navbat bilan yozib chiqildi (rasmga qarang). Bunda ixtiyoriy qo'shni sonlar orasidagi masofalar teng. Agar 5 sonining aylana markaziga nisbatan qarama-qarshi tomonida 32 soni turgan bo'lsa, 41 sonining aylana markaziga nisbatan qarama-qarshisida qanday son turibdi?



- A)68 B)15 C)65 D)14

- 19 (7,4 ball) A va B shaharlar orasidagi masofa 240 km. A shahardan B shaharga qarab 9:00 da birinchi sayyoh 80 km/soat tezlik bilan yo'lga chiqdi. Oradan 24 daqiqa o'tib A shahardan o'sha yo'nalishda 96 km/soat tezlik bilan ikkinchi sayyoh yo'lga chiqdi. Ikkinchi sayyoh birinchi sayyohni quvib o'tganidan qancha vaqt o'tib, birinchi sayyoh B shaharga yetib keladi?
 A)36 daqiqa B)24 daqiqa C)84 daqiqa D)30 daqiqa

- 20 (7,4 ball) Ketma-ket hadlari aynan bir xil songa ortib boradigan sonlar qatorini "Arifmetik" qator deb ataylik. Masalan 2, 6, 10, 14, 18 beshta sondan iborat sonli qatorning ketma-ket hadlari 4 ga ortib boradi.

1				25
		?		
29				45

Yuqoridagi 5×5 jadvalning har bir satr va har bir ustunida joylashgan sonlar "arifmetik" qatorlarni tashkil eta olsa, ? o'rniga mos keluvchi sonni toping.

- A)13 B)19 C)25 D)37